

«VATAN — ULUGʻ, BURCH — MUQADDAS!»

Turgunbayev.T.A

Fargʻona davlat universiteti,
harbiy taʼlim fakulteti dotsenti zahiradaga podpolkovnik

Annotatsiya: *Inson qayerda dunyoga kelsa ana shu yer uning uchun qadrli Vatan hisoblanadi. Kindik qoni toʻkilgan joy inson uchun hech narsaga alishib boʻlmaydigan, hamma narsadan ham qimmatli dargohdir. Ota-bobolarimiz, ulugʻ ajdodlarimiz va allomalarimiz ham yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida taribiyalashga alohida eʼtibor berib, oʻz yurtlariga muhabbatni ifoda etish borasida ajoyib namunalar koʻrsatishgan. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Ahmad al Fargʻoniy, Muhammad Xorazmiy, Abulays Samarqandiy, Burhoniddin Margʻinoniy kabi buyuk mutafakkirlarimiz oʻzlarining taxalluslarini kindik qonlari toʻkilgan yurt bilan bogʻlaganlari, ularning nomini dunyoga maʼlum va mashhur qilganliklari ham bir ibratdir.*

Kalit soʻzlar: *vatan, inson, mardlik, mustaqillik, burch, armiya, xalq, millatparvar, dargoh.*

Аннотация: *где бы ни родился человек, эта земля является для него дорогой родиной. Место, где свертывается пуповинная кровь, является для человека непривычным, ценным местом больше всего на свете. Наши предки, великие предки и ученые, уделяя особое внимание воспитанию молодежи в духе преданности родине, подали прекрасные примеры выражения любви к своей стране. Это также пример того, как такие великие мыслители, как Имам Бухари, Имам Термизи, Ахмад аль Фергани, Мухаммад Хорезми, абулайс Самарканди, Бурханиддин маргинони, связали свои прозвища с землей, где пролилась пуповинная кровь, сделали свое имя известным и известным во всем мире.*

Ключевые слова: *Родина, человек, храбрость, независимость, долг, армия, народ, националист.*

Annotation: *wherever a person is born, this place is considered a valuable homeland for him. The place where the blood of the navel is poured out is for a person a dargah that cannot be used to anything, more valuable than anything. Our ancestors, great-ancestors and allomas also paid special attention to the upbringing of young people in the spirit of loyalty to the motherland and showed excellent examples of expressing love for their land. It is also a sign that such great thinkers as Imam Bukhari, Imam Termiziy, Ahmad al Farghani, Muhammad Khwarazmiy, Abulays Samarkandi, Burhoniddin Marghinani Associated their pseudonyms with the land in which the blood of the navel was shed, making their name known and famous to the world.*

Keywords: *Homeland, man, Valor, independence, duty, Army, people, nationalist.*

Bugungi kunda milliy armiyamiz ming-minglab o'g'lonlarimiz uchun chinakam mardlik, fidoyilik, haqiqiy vatanparvarlik maktabiga aylangani, hech shubhasiz, bu yo'lda erishgan katta yutug'imizdir. Qisqa muddat ichida mamlakatimiz mustaqiligi, hududiy yaxlitligi, chegaralarimizning daxlsizligi, halqimizning tinch va osoyishta xayotini ishonchli himoya qilishga qodir milliy armiyamiz shakkilantirildi.

Milliy armiyamiz mamlakatimizda erkin, ozod va farovon hayotini bunyod etish, demokratik islohatlarni samarali amalga oshirish yo'lida ishonchli kafolat bo'lib kelmoqda. Tarhimizda birinchi marta o'z mohiyatiga ko'ra noyob tizim – harbiy-ma'muriy sektor tashkil etildi. Bunday ish usuli joylardagi davlat hokimiyati organlarini mamlakatimiz mudofaa qudratini mustahkamlashga faol jalb etish imkon berdi. Eng muhimi, "Armiya va xalq – bir tanu bir jondir" degan hal qiluvchi tamoyilni amalda ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Ayniqsa keyingi yillarda olib borilayotgan tub islohatlar natijasida milliy armiyamiz har qanday xavf-xatarga munosib zarba bera oladigan qudratli, tezkor va samarali kuchga aylanib bormoqda.

Harbiy kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish tizimi prinsipial jihatdan mutlaqo yangi asosga o'tkazildi. Mustaqillikning dastlabki yillarida mahalliy ofiser kadrlar yurtimizdagi harbiy hizmatchilar umumiy soni atigi, 0,6 foizni tashkil etgan. Ofiserlarni tayyorlash esa uchta harbiy bilim yurtida va bor yo'g'i uchta mutaxassislik bo'yicha olib borilar edi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida yangi, zamonaviy harbiy ta'lim muassasalari tashkil etildi, kursantlarni o'qitish tizimi esa ko'p tarmoqli asosda yo'lga qo'yilgan. Bugungi kunda bizning harbiylarimiz o'zlarining professional tayyorganlik darajasi bo'yicha jahondagi yetakchi mamlakatlar armiyalarining harbiy hizmatchilaridan aslo qolishmasligini o'zida emas, amalda isbotlamoqda.

Hech shubhasiz, bularning barchasi butun O'zbekiston xalqida ayniqsa, yoshlarimizda milliy armiyamiz bilan fahrlanish tuyg'usini Vatan himoyachisidek sharafli kasbga hurmat – ehtirom hissini uyg'otmoqda.

Bu-borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yilning 29-iyunidagi 267-sonli qarorida 2023 — 2027 yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish konsepsiyasi qabul qilindi. Konsepsiyaning 7-bobida Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarining tahlili va kutilayotgan natijalar «Vatan — ulug', burch — muqaddas!» g'oyasi asosida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida alohida e'tibor qaratilib o'tilgan.

Ayni paytda jahondagi vaziyat shiddat bilan o'zgarib, dunyoning ayrim mintaqalarida ahvol keskinlashib, xalqaro terrorizm va ekstremizm xavfi ortib borayotgani xalqaro va mintaqaviy vaziyatni har tamonlama tahlil qilishni, mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash, Qurolli Kuchlarimizning jangovar tayyorgarligi va salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ko'rishni talab etmoqda.

Eshit endi Vatan o'g'li mendin nasihat,
Qabul qilsang kelur boshingga davlat.
Vatan asli seningdur O'zbekiston,
O'g'izdin qolmish erdi bu guliston.

(Alixonto'ra Sog'uniy)

Darhaqiqat, insondagi azaliy va abadiy, ma'naviy va axloqiy qadriyatlardan biri Vatanparvarlik – insonparvarlik, ilmsevarlik, millatparvarlik, to'g'riso'zlik, vafodorlik, Vatanga muhabbat kabi hislarni o'zida mujassam etadi. Zero, har bir insonni tug'ilib, o'sib-ulg'ayib kamolga yetmog'i uchun osoyishta bir makon – Vatan kerak.

Xalqimiz tinchlikni yuksak qadrlaydi, shuning uchun ota-bobolarimiz duoga qo'l ochsa, dastavval tinchlik-omonlik, xotiri jamlik tilaydi. Tinchlik va xotirjamlik Alloh taoloning buyuk ilohiy ne'matlaridan biridir. Qolaversa, barcha ezgu ishlar ro'yobga chiqishining sababchisi ham osoyishtalikdir. Payg'ambarimiz (sallollohu alayhi vasallam) hadislarining birida tinchlik-xotirjamlik eng ulug' ne'mat ekanligini ta'kidlab shunday deganlar: "Ikki ne'mat borki, ko'pchilik insonlar uning qadriga yetmaydilar. U – xotirjamlik va sihat-salomatlikdir".

Barchamizga ma'lumki, barcha taraqqiyotlar – xoh iqtisodiy, xoh ma'naviy, xoh ijtimoiy, xoh ilmiy taraqqiyot bo'lsin, uning negizida tinchlik turadi. Shu sababdan, tinch, osoyishta makon, solih jamiyat va albatta ozod, qudratli Vatan hamda farovon turmushda umr guzaronlik qilish har bir insonning orzusi. Ammo, bu orzu o'z-o'zidan amalga oshadigan narsa emas. Vatanimiz fuqarolarini har birini bunday orzusini amalga oshirmoq uchun yurtimiz sarhadlarini daxlsizligini ta'min etib turgan fidoyi kasb egalari borki, ularning og'ir va mashaqqatli mehnatlari evaziga bugun yurtimizning tinchligi, turmush farovonligi, bu zaminda yashayotgan har bir inson manfaati to'liq ta'minlangan. Shaharu qishloqlar, mahallayu ko'chalar, hovli va uy-joylarimizni, o'quv yurtlarimiz va ish joylarimizni pok-ozoda hamda obod va go'zal qiyofada bo'lishi turmushimiz obodligining isbotidir.

Vatan himoyachisi bo'lish yanada sharafli burch bo'lsa, yurtning tinchligi va xafvsizligi uchun kurashish esa yurtimizning har bir fuqarosining burchidir.

Yoshlar qalbida milliy va diniy qadriyatlar asosida "O'zbekiston-yagona Vatan" degan tushunchani shakllantirib, yoshlar tafakkurida o'zlikni anglash, tarixiy xotiraga sadoqat, muqaddas qadriyatlarni avaylab-asrash, vatanparvarlik kabi his-tuyg'ularni kamol toptirish, mute'lik, loqaydlik, befarqlik kabi illatlardan poklash bugungi kunning eng ustivor vazifalaridan hisoblanadi.

Yoshlarni vatanparvar va millatparvar qilib tarbiyalash milliy g'oyamiz mafkuralaridan bo'lib, "Milliy istiqlol g'oyasi" tamoyillari – milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat; erkinlik va bunyodkorlik g'oyalari ustuvorligi; vatanparvarlik va insonparvarlik; boy ma'naviy va madaniy merosni avaylab-asrash va kelajak avlodga yetkazish; hamkorlik va do'stlik aloqalari; mamlakatda fuqarolar va millatlararo totuvlik; ijtimoiy barqarorlik, xalq farovonligi va shu kabi boshqa milliy va umuminsoniy g'oyalarga asoslangan. Yurtimizdagi

bugungi tinch va osoyishta, bunyodkor hayot, barqaror taraqqiyot bunday yondashuvning naqadar to'g'ri bo'lganini va uzoqni ko'zlaganini tasdiqlab bermoqda.